



BO'LAJAK TARJIMONLAR TAYYORLASHDA LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Yuldashev Salaxiddin Azamovich

Qo'qon universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri

<https://orcid.org/0000-0002-0943-3828>

s.yuldashev@kokanduni.uz

salahiddiny@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil

Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil

Jurnal soni: 17

Maqola raqami: 8

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1351>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Lingvomadaniy, kompetentlik, madaniy, polisubjekt, texnologik, kompleks, metodik, sotsiologik, grammatik, fonetik, leksik, sivilizatsiya, lingvokommunikativ.

Mazkur maqolada bo'lajak tarjimonlarni tayyorlash jarayonida lingvomadaniy va kommunikativ kompetentlikni shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tarjimonlik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan lingvomadaniy bilimlar va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlashdan iborat. Maqolada lingvomadaniy va kommunikativ kompetentlik tushunchalarining mazmuni ochib berilib, ularning tarjimon kasbiy faoliyatidagi o'rnı asoslanadi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik va lingvistik adabiyotlar tahlil qilinib, zamonaviy tarjimon tayyorlash modelida lingvomadaniy va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, usullar va ta'lim texnologiyalari o'rganildi. Tadqiqot natijalari lingvomadaniy va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish tarjimonlarning kasbiy faoliyatida samarali muloqot olib borishi, madaniyatlararo tafovutlarni to'g'ri anglash va tarjima sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Maqola xulosalari tarjimonlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kirish. Bugungi kunda bo'lajak tarjimonlarning kasbiy ijodiy qobiliyatlarini, lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida mutaxassislar samarali tayyorlash yo'llarini izlash tizimli, shaxsiy-faoliyatli, madaniy, polisubjekt, texnologik va boshqa yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Bo'lajak tarjimonlarni lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishni nazariy-uslubiy asosi sifatida biz tizimli-faoliyatli va madaniyshunoslik yondashuvlarini tanladik. Ularni bir-birini to'ldirgan holda qo'llash bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini shakllantirish jarayonning tashkiliy kompleksligini va uni interlingvomadaniy kommunikatsiya jarayoni sifatida samarali ishlaydigan tizimni qurishni ta'minlaydi. Shu jihatdan oliy ta'limda bo'lajak tarjimonlarning lingvokommunikativ kompetentligini rivojlantirishning samarali yondashuvlarini aniqlash, amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, ularni jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy turmushida faol qatnashish zaruriyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida dolzarblık kasb etmoqda.

O'zbekistonning ko'pmadaniyatli va ko'ptilli "landshafti" shaxsning til kompetentligini rivojlantirishga samarali asos bo'lmoqda. Chet tili ta'limi yoki N.Galskovaning ta'бири bilan aytganda, «Lingvomadaniy ta'lim» yosh avlodning yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish hamda interaktsiyaga kirishish imkoniyatlari va sarhadlarini yanada kengaytiradi. 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarorida yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun imkoniyatlar yaratish bosh maqsad etib belgilangan.

Ma'lumki, har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Metodik adabiyotlarda ehtiyojni tahlil qilishda ta'lim sharoitidan kelib chiqib, obyektiv va subyektiv ehtiyojlar farqlanadi¹. Obyektiv ehtiyoj: a) bo'lajak tarjimonlarning yoshga oid psixologik xususiyatlari, qiziqishlari, chet til o'rganish layoqatlari; b) kelgusi

tarjimonlik faoliyatida nutq faoliyat turlaridan egallanishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikma darajalari; v) davlat va jamiyat talabidan, ya'ni ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqib, bo'lajak tarjimonlarning chet tildan bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan dasturiy talablar haqidagi ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Subyektiv ehtiyoj talabalarning: a) o'rganilayotgan chet til va madaniyatiga munosabatlari; b) chet til o'rganish usullari va strategiyalari; v) qaysi nutq faoliyat turlari (gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv)ni egallashga qiziqishlari haqidagi ma'lumotlar asosida tahlil etiladi². Obyektiv va subyektiv ehtiyojlar haqidagi tahliliy ma'lumotlar asosida ta'lim maqsadlari aniqlanadi.

Ta'lim maqsadlarini aniqlashda bo'lajak tarjimonlarning kommunikativ ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat qaratish zarur³. Maqsad – ta'limda umumiy yo'nalish bo'lib, muayyan vazifalarni hal etish rejasidir. Maqsad deganda, chet til va uning sohibi madaniyatini o'rgatish va o'rganishning ongı tarzda rejalashtirilgan natijasi ko'zda tutiladi. Ta'lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma – topshiriq bo'lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi, u ta'lim mazmuni va unga muvofiq erishiladigan natijani belgilash orqali chet til o'qitish tizimini aniqlashtiradi⁴. Chet til o'qitish maqsadlari mazkur tizimning asosiy komponenti sifatida bo'lajak tarjimonlar tayyorlash tizimi sharoitlari va jamiyat hamda shaxs talabidan kelib chiqib aniqlashib boradi. Maqsad o'z navbatida chet til o'qitish mazmuni, tamoyillari, shuningdek, o'qituvchi va talabalarning faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqadigan usul va texnologiyalarni belgilaydi⁵.

Har qanday ta'limning sifati va samaradorligi maqsadning belgilanishidagi aniqlik darajasiga bog'liq. Chet til o'qitishda amaliy (ustuvor), ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar e'tirof etilgan. Mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida chet til o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarida faoliyat olib borishi uchun chet tilda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Metodist olim T.K.Sattorov o'zining tadqiqotlarida chet tilni o'qitish jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini kasbga yo'naltirishning bir qator lisoniy omillarini

¹ Edwards A., Knight P. Effective Early Years Education: Teaching Young Children. – London. Open University Press. 2001. – P: 45.

² Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. – P: 152-153.

³ Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2007. – С: 66-67.

⁴ Гальскова Н.Д. Современная цель обучения иностранным языкам: от комплексного подхода к интеграции. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: Просвещение, 2013. – С: 27

⁵ Биболетова М.З. Обучение иностранному языку в контексте языкового образования в современной российской школе. – М.: Просвещение, 2013. – 20 с.

ishlab chiqadi va ularni quyidagi takliflari bilan izohlashga harakat qiladi: a) talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarligidagi uzilish oson bartaraf qilinadi; b) bo'lajak chet tili muallimiga beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni yaxlit o'zlashtirishga yo'l ochiladi, bu o'z navbatida muallim pedagogik mahoratini oshirishga yordam beradi; v) sotsiologik-pedagogik maqsadga muvofiq ravishda oliy ta'limdagi chet tilini o'rgatuvchi o'quv predmetlarining maqsad hamda vazifalariga aniqlik kiritishga imkon beradi; g) muallimning pedagogik ehtiyojini qondira oladigan ta'lim mazmunini oqilona tashkil qilishga mo'ljallanadi; d) muallim shaxsining sotsiologik hislatlari va zaruriy lingvo-metodik ko'nikma va malakalarini shakllantirishga sharoit yaratiladi; e) talaba o'zini muallim sifatida his etishi va o'zligini anglashga yo'l ochiladi; yo) talabani mustaqil ta'lim olishi va o'z-o'zini tarbiyalashga e'tibor kuchayadi; j) talabadagi umuman o'qishga bo'lgan va kasbiga oid motivatsiyasini kuchaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; z) o'z-o'zini nazorat qilish va kamchiliklarini tuzatib borishga o'rgatiladi; i) bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy o'zlashtirish orqali talabalar aqliy tarbiya oladilar va hokazo⁶.

T.K.Sattarov birinchilardan bo'lib, chet tili materialining o'zlashtirish uchun amaliyotda bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash o'ziga xos metodika ekanligini va u uch bosqichdan iboratligini ko'rsatib berdi: birinchi bosqich – “maydon” qiyinchiliklarini aniqlash. Tillararo qiyoslash metodi asosida chet tili hodisalarining o'quvchilarning ona tili hodisalaridan farq qiluvchi va o'xshash tomonlari, til ichki taqqoslash metodi asosida o'rganilayotgan til hodisalarining bir-biriga o'xshash tomonlari muayyanlashtiriladi; ikkinchi bosqich – “doira” qiyinchiliklarini aniqlash, o'quvchilarning xorijiy nutqini kuzatish, magnit tasmasiga yozib maxsus o'rganish, suhbat, test o'tkazish yo'llari bilan ularning nutqida sodir bo'luvchi xatolarro'yxatga olish, ularning tabiatini o'rganish va maxsus mezonlarga ko'ra tiplarga ajratish. Mazkur olim tomonidan nutqda sodir bo'luvchi xatolarni quyidagi mezonlarga ko'ra guruhlarga ajratiladi:

- 1) til aspektlari: (grammatik, fonetik va leksik xatolar);
- 2) til materialining parametrlari (funksional, strukturaviy, semantik);
- 3) turg'unlik darajasi (turg'un, beqaror, tasodifiy);
- 4) nutqiy aloqa ahamiyati (nutqiy aloqani amalga oshirishda to'sqinlik qiladigan va nutqiy aloqani amalga oshirishda to'sqinlik qilmaydigan lisoniy hodisa); uchinchi bosqich – tillararo va til ichki qiyoslash natijalarini va ro'yxatga olingan xatolarini psixologik, psixolingvistik, didaktik, metodik qonun-qoidalar asosida izohlash, har bir qiyinchilik “nuqta”sining oldini olish, bartaraf etishga yo'naltirilgan metodik tadbir tuzish⁷.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolada T.K.Sattarov bo'lajak o'qituvchilar metodik malakalarini shakllantirish bo'yicha taklif etgan metodika quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Aniq mutaxassislik (masalan, chet tili) muallimi pedagogik faoliyati strukturasi va mazmunini nazariy tahlil qilish: a) jamiyatning hozirgi taraqqiyot bosqichida ushbu o'quv predmetining roli va o'rnini o'rganish; b) ushbu sohada konsepsiyalar, hujjatlar, hukumat qarorlari, ilg'or tajribani o'rganish; v) ushbu ixtisos muallimi pedagogik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

2. O'quv predmetini egallash bo'yicha o'quvchilar o'quv faoliyatini o'rganish: a) o'quv-tarbiya jarayonida pedagogik faoliyatni kuzatish; b) muallimlar pedagogik faoliyatiga oid va o'quv-tarbiyaviy jarayonga oid masalalarni ilg'or muallimlar bilan muhokama qilish; v) ilg'or muallimlarning ish tajribasini o'rganish va umumlashtirish; g) bo'lajak pedagoglar o'quv faoliyatini kuzatish; d) talabalarining sotsiologik-pedagogik tayyorgarligini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonini o'rganish; e) amaliyotchi talabalarining ish tajribasini o'rganish va umumlashtirish; yo) maktab va oliy o'quv yurtidagi o'z ish tajribamizni umumlashtirish.

3. Bo'lajak muallim sotsiologik malakalarini tanlash metodikasini ishlab chiqish: a) tanlashga ilmiy yondashish; b) tanlash manbaini ta'rif-tavsifini berish; v) tanlash birligini

aniqlash; g) tanlashga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish; d) tanlash mezonlarini ishlab chiqish.

4. Bo'lajak muallim (talaba)ning sotsiologik malakalarini bevosita tanlash va ularning amaliyotga mos kelishini eksperiment orqali tekshirib ko'rish⁸.

Metodist olim E.T.Erkayevning dissertatsion tadqiqoti ham bo'lajak chet tili muallimi ta'limida qo'llaniladigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifiga bag'ishlangan. Muallif dastlab ta'limda mashq tushunchasining metodik tavsifi, tarjima mashqlarini bajarishning lingvodidaktik ahamiyati, chet til ta'limida tarjima mashqlarini o'rgatish masalalari, ko'p tillilik sharoitida tarjima mashqlaridan foydalanish muammolarini yoritishga harakat qilgan. Mazkur olim tarjima bilan bog'liq lingvometodik kategoriyalar tavsifi masalasini yoritishda qo'yilgan ilmiy muammolarning metodik tahlili, metodik usul va vosita tushunchalarining lingvodidaktik tavsifi, shuningdek, tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi kabi qator bir-biriga yondosh va biri ikkinchisini to'ldiradigan muammolarni o'rganganligi bilan diqqatga molik⁹.

Yosh tadqiqotchi N.A.Abdugodirovaning dissertatsiyasida ingliz tili darslarida mediasavodxonlikni shakllantirish (V2) muammosi o'rganilgan va unda bir qator vazifalar qo'yilgan: chet tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mediata'limning xorijiy tajribasini o'rganish va mediasavodxonlikning tarkibiy qismlarini modifikatsiya qilish; kasbiy ta'limning milliy kontekstida o'rganilayotgan tilda mediasavodxonlikni o'qitish uslubiy tizimining hozirgi holatini tahlil qilish; nofilologik OTMlari boshlang'ich kurs talabalarining darslarida mediasavodxonlikni shakllantirishning uslubiy asoslari va samarali vositalarini aniqlash; nofilologik OTMlarining 1-2 kurs talabalarini o'rtasida mediasavodxonlikni shakllantirishning integrativ modelini va uni ingliz tili darslarida samarali amalga oshirishning didaktik vositalarini ishlab chiqish; yaratilgan didaktik vositalarni nofilologik OTMlarining 1-2 kurslarida ingliz tilini o'qitish amaliyotida sinab ko'rish va samaradorligini baholash¹⁰.

Bizning bu o'rindagi imkoniyatimiz chegaralanganligi uchun bo'lajak chet tillari o'qituvchilarini kasbga tayyorlashning lingvodidaktik xususiyatlarini ochib bergan uchta dissertatsion tadqiqotni mualliflik yondashuv asosida nazardan o'tkazdik. Endi ayni masalaning pedagogik jihati o'rganilgan ikkita dissertatsion ishni ham ko'rib chiqishni lozim topdik. Ulardan biri K.Risqulovning “Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sotsiologik kompetentligini shakllantirish tizimi” nomli doktorlik dissertatsiyasi bo'lib, unda quyidagi vazifalar qo'yilgan va muvaffaqiyatli hal qilingan: “kompetentlik”, “sotsiologik kompetentlik” kabi tushunchalarning mazmun va mohiyatini mualliflik yondashuvi asosida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, “Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sotsiologik kompetensiyasi” tipologiyasini aniqlash; bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sotsiologik kompetentligini shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini aniqlash, “Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning sotsiologik kompetensiyasini shakllantirish” andozasini yaratish; mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarning sotsiologik kompetentligini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish; talaba kasbiy kompetentligi sifat shkalasi dasturi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi portfoliosi, “Zamonaviy sotsiologik” to'garagi, ingliz tili o'qituvchilari professiogrammasini (kasbiy portreti) yaratish, sotsiologik kompetentligini shakllantirish darajasini belgilovchi indikatorlarni aniqlash; oliy ta'lim muassasalari (OTM) ingliz tili o'qituvchilari, rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi mazmunini Britaniya Kengashi tajribalari asosida takomillashtirish¹¹.

Natijalar. Rivojlangan demokratik davlatlarda to'plangan tajribalar va ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizda chet til kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'rgatiladi¹².

⁶ Sattarov T.K. Būlajak ingliz tili űituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. - T., 2003.

⁷ Sattarov T. Būlajak ingliz tili űituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. - T., 2003. - 21 b.

⁸ Sattarov T. Būlajak ingliz tili űituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. - T., 2003. - 215 b.

⁹ Erkaev E.T. Būlajak chet til muallimi ta'limida qūllanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi. - ND - T.:2008. - 120 b.

¹⁰ Abdugodirova N.A. Ingliz tili darslarida media savodxonlikni shakllantirish (B2). - Pedagogika fanlari būyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Jizzax, 2021. -129 b.

¹¹ Risqulova K. “Būlajak ingliz tili űituvchilari sotsiologik kompetentligini shakllantirish tizimi”. - DD. - T., 2017. - 9 b.

¹² űzbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. - Xalq ta'limi. - № 4. - 2013. - B. 4-32.

Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish natijasini o'zida ifodalovchi quyidagi qoidalarni amalga oshirish joiz:

1. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni oliy lingvistik ta'lim sharoitida kasbiy tarjimaga tayyorgarlik quyi tizim hisoblanadi, va bu uni kasbiy tayyorgarlikning umumdidaktik tamoyillarini inobatga olgan holda amalga oshirishga imkon beradi.

2. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga pedagogik tizim sifatida ochiq, ehtimollik xos, u egiluvchanlik, dinamiklik, boshqaruvchanlikka hamda takomillashtirishga mos salohiyatga ega.

3. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonining samaradorligi talablarni tarjima faoliyatini amalga oshirishga tizimli ta'sirlarni tashkil etishga va maxsus pedagogik sharoitlar yaratishga bog'liq.

4. Lingvokommunikativ kompetentlik bo'lajak tarjimashunosga tillararo, madaniyatlalraro, shaxslararo kasbiy kommunikatsiyani samarali amalga oshirishga imkon beruvchi uning maxsus bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar, shaxsiy xislatlari, tajribasining bir butunli pedagogik tizim sifatida ko'rinishi mumkin.

Binobarin, mazkur qoidalarni amalga oshirilishi bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini ma'lum darajadagi abstraksiya nuqtai nazardan tadqiq qilishga imkon beradi, chunki pedagogik o'zaro harakatni pedagogik tizim o'z-o'zini rivojlantirishi manbai sifatida ko'rib, ular mazkur kompetentlik shakllanadigan o'qituvchi va talabalarni o'zaro harakat jarayonining mohiyatini ochib bermaydi.

Tadqiq qilinayotgan jarayonning xususiyliigi va bo'lajak tarjimonlarda rivojlanayotgan xislatni xususiyatini inobatga olgan holda, ta'kidlaymizki, bizning tizimni qurishda bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonni ham tizimli, ham faoliyatli xususiyatlar inobatga olinishi kerak. Shuning uchun bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni ta'minlash uchun bizga tizimli va faoliyatli yondashuvlar jihatlarini birlashtiruvchi yondashuv talab qilindi. Bu o'quv mashg'ulotlarda chet tili nutqiy faoliyatni modellashtirish sharoitida bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini tartibli, tizimli amalga oshiriladigan tayyorlash tizim qurishni talab etuvchi tizimli-faoliyatli yondashuv bo'ldi¹³. Tizimli-faoliyatli yondashuv bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish tizimini talabani interlingvokommunikativ faoliyatga qo'shish jarayoni sifatida qurishni nazarda tutadi¹⁴.

Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muammosini o'rganishda, biz qator qoidalarni ajratdik:

1. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish - bu talabalar sub'ekt sifatida harakat qiladigan o'zga madaniyatni o'rganish jarayoni;

2. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish faqat ona tilining shakllangan milliy-madaniy negizida mumkin, chunki bu odamni boshqa xalq madaniyatiga yaqinlashtirish uchun asosdir;

3. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligi madaniyatlalraro muloqotning amaliy holatlarida ona va chet tili madaniyatining moddiy va ma'naviy qadriyatlar bilan o'zaro harakatda bo'lganda shakllanadi;

4. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonining samaradorligi OTMda tilshunos shaxsning o'zini o'zi aniqlashi, o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlarni maqsadli yaratishga bog'liq.

Tizimli-faoliyatli va madaniyatshunoslik yondashuvlar asosida biz tomondan bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va

kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning kommunikativ yo'naltirilgan tizimni ishlab chiqildi, uni mavjud kasbiy lingvistik ta'lim tizimi doirasida ishlaydigan quyi tizim deb hisoblash mumkin. Kasbiy tayyorgarlikning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, shuningdek metodlari va shakllariga e'tiborni qaratgan holda, u ham o'ziga xos maqsadlari, vazifalari, mazmuni, usullari, shakllariga ega va ma'lum tamoyillar tizimiga asoslanadi¹⁵.

Muhokama. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi O'zbekistonning oliy ta'lim tizimi doirasida ko'rib chiqildi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, ushbu jarayonni takomillashtirishda tizimli-faoliyatli va madaniyatshunoslik yondashuvlari bir-birini to'ldiruvchi rol o'ynaydi. Bu yondashuvlar talabalarni interlingvomadaniy muloqotga tayyorlashda samarali bo'lib, ularning kasbiy faoliyatida til va madaniyat o'rtaidagi bog'lanishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida ajratib ko'rsatilgan qoidalar, jumladan, kompetensiyalarni rivojlantirishning dinamik va boshqariladigan tizim sifatida ko'rinishi, bo'lajak tarjimonlarning kasbiy tayyorgarligini umumdidaktik tamoyillarga moslashtirishga yordam beradi. Masalan, T.K.Sattorovning ishlarida taklif etilgan metodik bosqichlar - qiyinchiliklarni aniqlash va bartaraf etish usullari - chet til o'qitishda nutq xatolarini tahlil qilishda amaliy qo'llanilishi mumkin. Bu yondashuv talabalarining pedagogik malakalarini shakllantirishda, shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda samara beradi. Shu bilan birga, E.T.Erkayevning tarjima mashqlari bo'yicha lingvodidaktik tasnifi va N.A.Abdugodirovning mediasavodxonlikni integratsiya qilish modellari chet til ta'limida innovatsion vositalar sifatida qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi. K.Risqulovning dissertatsiyasida esa sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish andozasi va didaktik sharoitlarni takomillashtirish takliflari oliy ta'limda kasbiy portretni yaratishda muhim hisoblanadi.

Natijalarni kengroq kontekstda baholaganda, rivojlangan mamlakatlar tajribasi (masalan, Britaniya Kengashi modellari) bilan solishtirganda, O'zbekiston ta'lim tizimida chet tillarni o'qitish kommunikativ yo'naltirilgan integrativ yondashuvga asoslanishi zarurligi aniqlandi. Bu jarayon talabalarning ona til madaniyati asosida chet madaniyatni o'zlashtirishga, madaniyatlalraro muloqotda samarali ishtirok etishiga imkon beradi. Biroq, tadqiqot cheklovlarini sifatida, faqat cheklangan sonli dissertatsiyalarni tahlil qilishni ko'rsatish mumkin, bu kelgusida kengroq empirik ma'lumotlar bilan to'ldirilishi kerak.

Taklif etilgan tizim va tamoyillar oliy ta'lim dasturlarini yangilash, darsliklar yaratishda qo'llanilishi mumkin bo'lib, bo'lajak tarjimonlarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol qatnashishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu modellarni eksperimental sinovdan o'tkazish va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishga qaratilishi tavsiya etiladi. Bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshirib, global talablarga mos mutaxassislar tayyorlashga hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar. Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish tizimli-faoliyatli va madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida kommunikativ yo'naltirilgan, ochiq, dinamik va boshqariladigan pedagogik tizim sifatida qurilishi lozim. Ushbu tizim talabalarni real kasbiy vaziyatlarda faol sub'ekt sifatida ishtirok etishga, madaniyatlalraro muloqotda samarali harakat qilishga tayyorlaydi hamda O'zbekistonning ko'pmadaniyatli muhitida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish talablariga to'liq javob beradi.

Taklif etilgan yondashuv va tamoyillar oliy ta'lim muassasalarida tarjimonlik yo'nalishi o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik va metodik qo'llanmalar yaratishda qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Edwards A., Knight P. Effective Early Years Education: Teaching Young Children. - London. Open University Press. 2001, - P: 45.

2. Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. - NY.: Longman, 2007. - P: 152-153.

3. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. - М.: Академия, 2007. - С: 66-67.

¹³ Фурманова В.П. Межкультурная коммуникация и лингвокультуроведение в теории и практике обучения иностранным языкам. - Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 1993. - 120 б.

¹⁴ Якушкина И.З. Связь урока и внеурочной работы по иностранному языку. - М.: "Высшая школа", 2018. - 120 б.

¹⁵ Ширинов В.Д. Педагогическая коммуникация. Теоретические основы: Автореф. дис. д-ра пед. наук. - Челябинск, 2015. - 39 б.

4. Гальскова Н.Д. Современная цель обучения иностранным языкам: от комплексного подхода к интеграции. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: Просвещение, 2013. – С:27
5. Биболетова М.З. Обучение иностранному языку в контексте языкового образования в современной российской школе. – М.: Просвещение, 2013. – 20 с.
6. Саттаров Т. Бўлажак инглиз тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т., 2003. – 21 б.
7. Саттаров Т. Бўлажак инглиз тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. -Т., 2003. – 215 б.
8. Эркаев Э.Т. Бўлажак чет тил муаллими таълимида қўлланадиган таржима машқларининг лингводидактик таснифи. - НД – Т.: 2008. - 68 б.
9. Абдуқодирова Н.А. Инглиз тили дарсларида медиа саводхонликни шакллантириш (B2). - Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори ((PhD)) диссертацияси. – Жиззах, 2021. -129 б.
10. Рисқулова К. “Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими”. – ДД. – Т., 2017. – 9 б.
11. Ўзбекистон Республикаси узлуксиз таълим тизимининг Давлат таълим стандартлари. – Халқ таълими. – № 4. – 2013. – Б. 4-32.
12. Фурманова В.П. Межкультурная коммуникация и лингвокультуроведение в теории и практике обучения иностранным языкам. - Саранск: Изд-во Мордов. ун-та, 1993. – 120 б.
13. Якушкина И.З. Связь урока и внеурочной работы по иностранному языку. - М.: “Высшая школа”, 2018. - 120 б.